

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarni ko'zlangan natijaga erishish uchun o'z faoliyatlarini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirishga o'rgatish;
- o'quvchilarda qo'l mehnati vositasida ijodiy g'oyalarni ro'yobga chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

10-DARS. TOVUS

Dars maqsadlari:

- qog'ozdan turli shakldagi qismlarni qirqish, bukish va yelimlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- andoza bilan ishlash mahoratini oshirish;
- ko'z bilan chandalash, belgilangan vazifaga muvofiq o'z faoliyatini rejalashtirish, algoritm bo'yicha harakatlarni bajarish qobiliyatini takomillashtirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Qaysi biringiz tovusni ko'rgan?
2. U qanday qush? (*Katta, chiroylı*).
3. Tovusning dumi qanday? (*Katta, yorqin, rang-barang*).

O'qituvchi bugungi darsning maqsadi "Tovus" mavzusida hajmli aplikatsiya tayyorlash ekanligini ma'lum qiladi.

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi odatdagи tuzilish bo'yicha o'tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo'riqnomasi berilgan.

Reja tuzish va shakllarni tayyorlash uchun asosiy jihatlar:

-barcha tasmalar bir xil kenglik va uzunlikda bo'lishi shart (buning uchun chizg'ich va qalam yordamida belgilash kerak, tasmalarning kengligi 1 cm bo'lishi lozim);

-detallarni asosga yopishtirishni boshlashdan oldin, andozani tayyorlab, uni chizib olish zarur.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Avvalo, o'quvchilar rangli qog'ozdan tovus tanasining andozasini yasab, uni oq qog'ozga chizib olishlari kerak. Bu qism simmetrik bo'lishi uchun rangli qog'ozni ikkiga buklash, tovus tanasining yarim konturini chizish va qirqib olish tavsiya etiladi. So'ngra, bu kontur bo'ylab ikkiga buklangan turli rangdagi tasmalarni yopishtirib chiqish lozim. Keyin esa, tovus tanasining andozasini darslikning 25-sahifasida ko'rsatilganidek yopishtirish kerak.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

O'quvchilar "Uch M" refleksiya usulidan foydalanib, yakuniy xulosalarni chiqaradilar.

O'quvchilardan dars davomida ular yaxshi uddalagan uchta jihatni aytishlari va keyingi darsda o'z ishlarini yaxshilash uchun bitta taklif kiritishlari so'raladi.

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarga rangli qog'oz tasmalaridan foydalanib, "Tovus" nomli hajmli applikatsiya yasashni o'rgatish.

11-DARS. QIZIQARLI QO'L MEHNATI

Dars maqsadlari:

- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- ikki buklangan qog'oz tasmalaridan hajmli applikatsiya yaratish usulini mustahkamlash;
- shablon bilan ishlash va kontur bo'yicha qirqish ko'nikmasini mustahkamlash;
- ko'z bilan chamalash qobiliyatini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).